

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilning yanvar – dekabrda Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 22 349,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar - dekabrga nisbatan 6,3 % ga o'sdi.

2019 yil yanvar – dekabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 8 597,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich 2018 yilga nisbatan 4,0 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 4,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd. so'm		2018 yil yanvar-dekabriga nisbatan % da
	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr	
I. YaHM	17802,0	22349,3	106,3
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17273,3	21468,7	106,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	528,7	880,6	108,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17273,3	21468,7	106,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	9189,6	10938,0	104,6
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2466,9	3435,7	115,1
Sanoat	1204,4	1699,1	109,3
qurilish	1262,5	1736,6	120,6
Xizmatlar	5616,9	7095,0	105,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1761,0	2107,7	105,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	842,5	930,8	104,1
boshqa xizmat tarmoqlari	3013,3	4056,5	104,9

Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi o'sish sur'ati – 104,6 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 50,9 %), sanoat (qurilishni qo'shgan holda) – 115,1 % (16,0 %), sanoat – 109,3 % (7,9 %), qurilish – 120,6 % (8,1 %), xizmatlar – 105,1 % (33,1 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 105,9 % (9,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 104,1 % (4,3 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 104,9 % (19,0 %) ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-dekabrida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari



Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,9 % ini tashkil etdi.


Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)




YaHMning tarmoqlardagi qo'shgan hissasi bo'yicha tarkibidagi ulushi hisobot yilda, qishloq xo'jaligi 50,9 % (2018 yil 53,2 %), sanoat (qurilishni qo'shgan holda) 16,0 % (2018 yil 14,3 %), xizmatlar 33,1 % (2018 yil 32,5 %)ni, tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

2018 yil yanvar-dekabr



2019 yil yanvar-dekabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

YaHMning xizmatlar sohasining tarkibidagi ulushi, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha ulushi 9,8 % (2018 yil 10,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 4,3 % (4,9 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 19,0 % (17,4 %)ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yiǵma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: O.Tairov
Tel: (0371) 230-85-80